

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

IBRAGIMOVA UMIDA NAVRUZOVNA

O‘ZBEK MUSIQALI DRAMALARIDA SAHNA NUTQINING
SPETSIFIK XUSUSIYATLARI
(1990-2018-yy.)

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Ibragimova Umida Navruzovna

O‘zbek musiqali dramalarida sahna nutqining spetsifik xususiyatlari
(1990-2018-yy.) 3

Ибрагимова Умида Наврузовна

Специфические особенности сценической речи в узбекских
музыкальных драмах (1990-2018 гг.) 19

Ibragimova Umida Navruzovna

Specific features of stage speech in Uzbek musical dramas
(1990-2018) 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

IBRAGIMOVA UMIDA NAVRUZOVNA

O‘ZBEK MUSIQALI DRAMALARIDA SAHNA NUTQINING
SPETSIFIK XUSUSIYATLARI
(1990-2018-yy.)

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/San75 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikulova Guzal Erkinovna
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Ahmetjanova Muqaddas Vahobovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Ismoilov Anvar Xamdjonovich
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
San'atshunoslik instituti "Sahna san'ati" bo'limi mudiri

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust soat 12.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (55-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 27-iyul kuni tarqatildi.

(2026-yil 27-iyuldagi 22-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yangilanish jarayonlari kechayotgan sharoitda ma'naviyat, madaniyat va teatr san'atining shaxs kamolotini ta'minlashdagi badiiy-estetik, tarbiyaviy, ta'limiy hamda axloqiy aspektlarining mazmun va shakl jihatidan konkretlashuv tendensiyasi kuzatilmoqda. Media va nanotexnologiyalarning teatr san'ati bilan integratsiyalashuvi natijasida aktyorlik mahorati va sahna nutqi, ovoz ifodaliligi hamda musiqaning badiiy sintezi yangi ijodiy yo'nalish sifatida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, milliy musiqali spektakllarning badiiy yechimi, aktyorlar ijodiy faoliyatining an'anaviy va innovatsion amaliyoti, rejissura hamda obrazli ssenografiya bilan bir qatorda sahna nutqining spetsifik imkoniyatlarini takomillashtirish masalasi zamonaviy teatrshunoslikda dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahon teatrshunosligida aktyorlik san'ati bilan bevosita bog'liq bo'lgan sahna nutqining nazariy-konseptual metodologik asoslari, badiiy xususiyatlari, tasviriy-obrazli vositalari keng tadqiq etib kelinmoqda. Musiqali teatrlarda dramaturgiya, rejissura va aktyorlik mahorati kontekstida badiiy yaxlitlikka ega bo'lgan sahna asarining yuzaga kelishida sahna nutqining spetsifik xususiyatlarini talqin qilish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Musiqali teatrlardagi sahna nutqining o'ziga xosligi, uning musiqa bilan uyg'unligi, bu sohada jamlangan tajriba va an'analarni o'rganish, yangi davrda yuzaga kelgan tendensiyalarni aniqlash kabi masalalar dolzarb hisoblanmoqda.

O'zbek teatrshunosligida musiqali drama teatri, undagi badiiy-estetik xususiyatlar, sahna asarining xalqchilligi va tarbiyaviy ahamiyati doimo olimlar nazarida bo'lib, teatrshunos olimlarning musiqali teatr borasida olib borgan tadqiqotlari asosida bugungi kunda ham spektaklning rejissurasi, badiiy yaxlitligi, aktyorlarning ijro mahorati haqida izlanishlar olib borilmoqda. "Avvalo, milliy madaniyatimiz va san'atimizda xalqchillik tamoyillarini yanada oshirish, uni tom ma'noda el-yurtimizning qalbi va yuragini ifoda etadigan, yuksak xalqaro mezon va talablarga javob beradigan sohaga aylantirish – eng muhim vazifa"¹ sifatida qaralmoqda. Milliy musiqali teatr san'atini targ'ib qilish, undagi aktyorlarning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish, epik, tarixiy va zamonaviy qahramonlar obrazini yaratishda sahna nutqining o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston madaniyat va san'at sohasi xodimlariga tabrik / – Toshkent: Xalq so'zi, 2022-yil 16-aprel. – B. 1.

PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 22-noyabr-dagi PQ-399-son “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuni ilmiy o‘rganish jarayonida respublika olimlarining tadqiqotlari bilan birgalikda xorijda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalaridan keng foydalanildi. Xususan, xorij tadqiqotlarida sahna nutqi, talaffuz masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, G.Fei (Xitoy), N.Hidaya, A.Mesleh (Malayziya), Sh.Marsh (Buyuk Britaniya), Ye.Velikaya (Rossiya), N.Zavbi (Sloveniya)² tadqiqotlarida musiqali teatrning tarixiy aspektlari, badiiy-estetik xususiyatlari, musiqali teatrda ovoz va nutq talablari, aktyor ijrosida sahna nutqining musiqiy ohang bilan integratsiyasi va badiiy sintezlashuvi masalalari o‘rganilgan.

MDH davlatlarida ham sahna nutqi masalalariga doir qator tadqiqotlar olib borilgan. Nazariyotchi va amaliyotchi mutaxassislar K.Stanislavskiy, V.Nemirovich-Danchenko, M.Baxtin, M.Chexov, M.Knebel ishlarida aktyorlik san’atining nazariy asoslari o‘z ifodasini topgan³. Shuningdek, Ye.Saricheva, A.Petrova, N.Kozlyaninova, V.Galendeyev, D.Mosiyenko, S.Petrovskaya, I.Promptova, Ye.Chernaya kabi olimlarning ilmiy ishlarida teatr san’ati ta’limining fundamental spetsifikasi va umumiy masalalari, teatr san’ati rejissurasi va aktyorlik mahoratining badiiy aspektlariga oid sahna nutqining nazariy-konseptual, spetsifik xususiyati, aktyorlik ta’limida sahna nutqi metodologiyasi o‘z aksini topgan⁴. Mazkur ishlardan tadqiqotning yaratilishida o‘rganildi, dissertatsiya va avtoreferatlar bilan tanishildi.

² Fei G. Metaphor Use in Describing English Public Speaking Anxiety by Chinese University EFL Learners // Volume 118, November, 2023. – P. 96-111.; Hidayah N. A Study on the Self-Confidence of English Department Students After Taking Public Speaking Course: A Narrative Study // English education department faculty of education and teacher train universitas islam Negeri K.H.Abdurrahman. Wahid Pekalongan. September, 2023. – P. 48-56.; Marsh Sh. Online vs. Traditional Classroom: An Examination of Public Speaking Anxiety in Community College Students // Community College Journal of Research and Practice. Volume 40 (5), June, 2015. – P. 3-7.; Mesleh A. Public Speaking Anxiety and Its Relationship with Attitude and Motivation Among Jordanian EFL Learners. PhD thesis. Universiti Utara Malaysia. 2023. – 148 p.; Velikaya Ye. Stage Monologue and Its Linguistic Features: Textual and Prosodic Analysis. Cipr. 2022. – 238 p.; Žavbi N. Teaching and Researching Stage Speech: Connecting Theory and Practice Science and Art // Journal of Education Culture and Society. 2016. Volume 7, – № 2. – P. 244-252.

³ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986. – 444 с.; Кнебель М.О. Слова в творчестве актера. – Москва: Всерос. театр, 1970. – 160 с.; Немирович-Данченко В.И. О творчестве актера. – Москва: Искусство, 1984. – 624 с.; Станиславский К.С. Работа актёра над собой. – Москва: Искусство, 1985. – 480 с.; Чехов М.А. О технике актера. – Москва: АСТ, 2018. – 288 с.

⁴ Петрова Т.И. Сценическая речь: теория и практика. – Москва: Высшая школа, 2005. –256 с. Петрова Т.И. Основы сценической дикции и выразительного чтения. – Санкт-Петербург: Искусство, 2010. – 192 с. Козлянинова Н. А. Сценическая речь актёра: лексика, интонация, пауза. – Москва: Искусство, 2008. – 210с. Козлянинова Н.А. Просодические особенности сценической речи студентов театральных вузов.

O'zbek teatrshunosligida musiqiy teatrlarda aktyorlik san'atining genezisi va evolyutsiyasi nuqtai nazaridan M.Rahmonov, M.Qodirov, M.Hamidova, S.Qodirova, O.Tojiboyeva, Z.Xudoyorova ishlarida o'rganilgan⁵. Musiqali teatr spektakllarida aktyorning nutqiy ijrochilik masalalari, musiqali teatrdah sahna nutqini o'qitishning metodikasi, uning zamonaviy jihatlari, talaffuz me'yorlari, badiiy o'qish masalalarining ilmiy-amaliy tomonlari N.Aliyeva, L.Xo'jayeva, M.Isroilov, I.Po'latov, S.Inomxo'jayev, A.Sayfuddinov, A.Nosirova, K.Umirzakov, Z.Alimjanova, A.To'laganov, G.Xalikulova, R.Qodirov ishlarida tadqiq etilgan⁶. O'zbek musiqali teatrining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish jarayonlari M.Hamidova, O.Tojiboyevalarning tadqiqotlarida, aktyorlar ijrosi, teatrning repertuar masalalari, tarixiy spektakllarda aktyor nutqi masalalari K.Umirzakov va G.Xalikulovalarning spektakl tahlillarida o'rganilgan.⁷ Mazkur tadqiqotlar dissertatsiyaning nazariy asosini shakllantirishda muhim manba vazifasini bajardi. Biroq milliy musiqali dramalarda sahna nutqining spetsifik xususiyatlari fundamental nuqtai nazardan o'rganilmaganini qayd etish lozim.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi:

– Театральная жизнь, 2012, № 3, с. 34–42. Галендеев В. Сценическая речь. Школа.Театр. – Санкт-Петербург: Артмедия, 2016. – 526 с.; Мосиенко Д.М. Казахский музыкальный театр: история становления: Дис. ... док. исс. наук. – Москва: РАМ имени Гнесиных, 2017. – 380 с.; Петровская С.В. Сценическая речь в контексте культурологического знания: Дис. ... кан. исс. наук. – Краснодар: КГИИК, 2009. – 138 с.; Промтова И. Искусство сценической речи. – Москва: Искусство, 2019. – 242 с.; Саричева Е. Техника сценической речи. – Москва: Руграм, 2022. – 150 с.; Черная Е. Сценическая речь классического восточного театра и ее уроки. – Санкт-Петербург: Артмедия, 1994. – 308 с.

⁵ Rahmonov M.R. O'zbek teatri qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975. – 286 b.; Qodirov M.X. O'zbek teatri tarixi. Darslik. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. – 240 b.; Qodirov M.X. Temuriylar davri tomosha san'atlari. Monografiya. – Toshkent: San'at jurnali nashriyoti, 2007. – 216 b.; Qodirov M.X. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1993. – 207 b.; Хамидова М. Актерское искусство узбекской музыкальной драмы. – Ташкент: Издательство Фан, 1987. – 148 с.; Qodirova S.M. XX asr o'zbek teatrida komediya san'ati (shakllanish va taraqqiyot muammolari): San. fan. dok. dis. – Toshkent: O'zbekiston Badiiy akademiyasi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, 2003. – 325 b.; Tojiboyeva O.Q. Epos va teatr. Birinchi kitob. – Toshkent: San'at jurnali, 2015. – 240 b.; Tojiboyeva O.Q. Markaziy Osiyo teatrlari tarixida xalq eposining o'rni: San. fan. dok. dis. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti, 2011. – 261 b.; Xudoyorova Z.R. O'zbek milliy musiqali teatr aktyorining shakllanishida xalq badiiy ijodiyotining o'rni: san.fan.fal.dok.(PhD) – Toshkent, 2025. – 143 b.

⁶ Xo'jayeva L. O'zbek teatri san'ati maktabida orfoepiya ustida ishlash: San. fan. nom. dis. – Toshkent, 1957. – 144 b.; Po'latov I.Sh. O'zbek sahna nutqining tarkib topish va rivojlanish problemalari: San.fan. nom. dis. avtoref. – Toshkent: San'atshunoslik instituti, 1969. – 19 b.; Inomxo'jayev S.I. Badiiy o'qish asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. – 180 b.; Sayfuddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. – Toshkent: Fan, 1980. – 178 b.; Aliyeva N., Nosirova A., Isroilov M. Monolog ustida ishlash. – Toshkent: TDSI, 2003. – 132 b.; To'laganov A.N. Sahna nutqi. Darslik. – Toshkent: Musiq, 2010. – 326 b.; Умрзаков К.У. Проблемы сценической речи в узбекской музыкальной драме: Автореф.дис. ... канд. искуc. наук. – Ташкент: Научно-исследовательский институт Искусствознания имени Хамзы Хакимзаде Ниязи, 1987. – 18 с.; Xalikulova G.E. O'zbek tarixiy dramasi talqinida sahna nutqi masalalari. (1980-90-yillar): San. fan. nom. dis. – Toshkent: O'zbekiston Badiiy Akademiyasi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, 2004. – 184 b.; Qodirov R.T. Talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari: Ped. fan. fal. dok. dis. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, 2024. – 129 b.

⁷ Хамидова М. Актерское искусство узбекской музыкальной драмы. – Ташкент: Фан, 1987. – 148 с.; Tojiboyeva O. Markaziy Osiyo teatrlari tarixida xalq eposining o'rni: San. fan. dok. dis. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti, 2011. – 261 b.; Xalikulova G. O'zbek tarixiy dramasi talqinida sahna nutqi masalalari. (1980-90-yillar): San. fan. nom. dis. – Toshkent: O'zbekiston Badiiy Akademiyasi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, 2004. – 184 b.

an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek musiqali teatrida sahna nutqining janrlar tizimidagi spetsifik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

musiqali dramaning o'ziga xos xususiyatlari, sahna nutqining muhim komponent sifatidagi o'rni va roli, uning tarixiy taraqqiyoti va nazariy-estetik asoslarini ilmiy jihatdan o'rganish;

xalq dostonlari asosida sahnalashtirilgan musiqali spektakllarda qahramonlarning sahna nutqi spetsifikasini aniqlash;

tarixiy va zamonaviy mavzuda yaratilgan musiqali spektakllarda aktyor ijrosidagi nutqqa oid an'analarni saqlash hamda ularni yangi tendensiyalar asosida boyitish va rivojlantirish yo'llarini ilmiy asosda tahlil etish;

musiqali teatr aktyorining shakllanishida sahna nutqining ahamiyatini ochib berish;

o'zbek musiqali teatr aktyorlarining sahna nutqiga doir amaliy ko'nikmalarini nazariy aspektida tadqiq qilish;

o'zbek musiqali drama aktyorining sahnaviy nutqini takomillashtirish, ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda spektakl badiiy yaxlitligini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek musiqali dramalari belgilandi.

Tadqiqot predmetini sahnalashtirilgan spektakllarda aktyor ijrosi va sahna nutqining o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy san'atshunoslik ilmining tarixiy-xronologik, faktologik, audio-vizual, intervyu, suhbat, qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek musiqali teatr aktyori ijrosidagi sahna nutqining intonatsion-emotsional va musiqiy-kommunikativ tabiatiga xos spetsifik xususiyatlari, janrlarga xos nutqiy xarakter, tempo-ritm va tub ma'noni ochishga xizmat qiluvchi verbal, paraverbal va prosodik ifodaviy vositalarning musiqiy dramaturgiya, vokal va plastik harakatlar bilan sintetik uyg'unligi badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilishi asoslangan;

epik, tarixiy va zamonaviy mavzudagi milliy musiqali dramalarda personajning nutqiy xarakterini yaratishda aktyorning pauza, so'z urg'usi va intonatsion ifoda vositalaridan janr tabiati va obraz psixologiyasiga muvofiq ravishda maqsadli foydalanishi spektakl badiiy yaxlitligini ta'minlovchi vosita ekanligi dalillangan;

musiqali teatr aktyori ijrosida nutq shartliligining psixofizik holat, sahna nutqi, sahnaviy harakat va intonatsion partitura birligiga asoslangan obraz yaratishning sintetik ijroviy-kommunikativ qonuniyatlari aniqlanib, nutq, vokal va harakatning sinkretik muvofiqligi obraz reprezentatsiyasi hamda sahnaviy kommunikatsiyaning badiiy ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy mexanizm ekanligi asoslangan;

musiqali teatr aktyorining vokal-intonatsion va sahnaviy nutq madaniyati individual ijro trayektoriyasida kompleks yondashuvning sintetik aktyorlik

kompetensiyasiga ko'ra sahnaviy ekspressivlikni yuksaltiruvchi omil ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

san'at oliy ta'lim muassasalari musiqali teatr aktyorligi yo'nalishi uchun "Sahna nutqi" o'quv qo'llanmasi yaratilgan;

musiqali drama aktyorlarini o'qitishning didaktik-metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

musiqali teatrlar taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega asosiy masalalar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

sahna nutqining spetsifik xususiyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar musiqali teatlarga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammo aniq ko'rsatilganligi, sahna asarlarining qiyosiy tahlil etilganligi, ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, ilmiy adabiyotlarga asoslanganligi, spektakllarni tahlil qilishda arxiv manbalar keltirilganligi, sahna asarlarining elektron variantlari, ijodkorlar bilan suhbatlarga asoslangani, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy nashrlarda maqolalar chop etilgani hamda ishlab chiqarilgan takliflarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, teatrshunoslikda sahna nutqiga oid bo'lgan ilmiy tadqiqotlar ko'lami kengayadi. San'at va madaniyat institutlarida musiqali drama aktyor va rejissyorlar o'qitishda nazariy bilimlar xalqaro miqyosdagi ilmiy ishlar qatorida targ'ib qilinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublika teatrlarida sahnalashtirilgan epik, tarixiy, zamonaviy mavzudagi spektakllarda qahramonning o'ziga xos nutqiy xarakterini topishda dissertatsiya amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi. Spektakllardagi nutq o'zbek tilining fonetik imkoniyatlarini, muomala va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Milliy sahna asarlaridagi musiqiy nutqning xalqaro miqyosdagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek musiqali dramalarida sahna nutqining spetsifik xususiyatlari mavzusidagi tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek musiqali teatr aktyori ijrosidagi sahna nutqining intonatsion-emotsional va musiqiy-kommunikativ tabiatiga xos spetsifik xususiyatlari, janrlarga xos nutqiy xarakter, tempo-ritm va tub ma'noni ochishga xizmat qiluvchi verbal, paraverbal va prosodik ifodaviy vositalarning musiqiy dramaturgiya, vokal va plastik harakatlar bilan sintetik uyg'unligi badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilishi asoslangan taklif va xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi musiqali teatrlar faoliyatini kompleks o'rganishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 15-oktyabrdagi 02-11-17-3492-son ma'lumotnomasi). Natijada, musiqali teatr aktyorlarining sahnaviy nutq kompetensiyalari rivojlantirilgan;

epik, tarixiy va zamonaviy mavzudagi milliy musiqali dramalarda personajning nutqiy xarakterini yaratishda aktyorning pauza, soʻz urgʻusi va intonatsion ifoda vositalaridan janr tabiati va obraz psixologiyasiga muvofiq ravishda maqsadli foydalanishi spektakl badiiy yaxlitligini taʼminlovchi vosita ekanligi dalillangan taklif va xulosalardan Respublikadagi musiqali teatrlar repertuarini shakllantirish va sahnalashtirish jarayonida foydalanilgan (Oʻzbekiston teatr arboblari uyushmasining 2026-yil 21-yanvardagi 01-01-08-son maʼlumotnomasi). Natijada, musiqali teatr aktyorlarining sahna nutqini rivojlantirishning metodologik-didaktik asoslari takomillashtirilgan;

musiqali teatr aktyori ijrosida nutq shartliligining psixofizik holat, sahna nutqi, sahnaviy harakat va intonatsion partitura birligiga asoslangan obraz yaratishning sintetik ijroviy-kommunikativ qonuniyatlari aniqlanib, nutq, vokal va harakatning sinkretik muvofiqligi obraz reprezentatsiyasi hamda sahnaviy kommunikatsiyaning badiiy taʼsirchanligini taʼminlovchi asosiy mexanizm ekanligi asoslangan taklif va xulosalardan “Oʻzbekiston tarixi” telekanali koʻrsatuvlarida foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 7-noyabrdagi 06-28-1676-son maʼlumotnomasi). Natijada, teatr ijodkorlari ishtirokidagi koʻrsatuv va suhbatlar orqali sahna nutqining oʻziga xos xususiyatlarini yoritishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlar ommalashtirilib, uning spetsifik jihatlari boʻyicha amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan;

musiqali teatr aktyorining vokal-intonatsion va sahnaviy nutq madaniyati individual ijro trayektoriyasida kompleks yondashuvning sintetik aktyorlik kompetensiyasiga koʻra sahnaviy ekspressivlikni yuksaltiruvchi omil ekanligi isbotlangan taklif va xulosalardan respublikadagi musiqali teatrlar faoliyatiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 15-oktyabrdagi 02-11-17-3492-son maʼlumotnomasi). Natijada, musiqali spektakllarda aktyorlarning nutqiy ifodaviyligi, soʻz va musiqiy ohang uygʻunligini taʼminlash mexanizmlari hamda sahnaviy kommunikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida maʼruza koʻrinishida bayon etilgan holda aprobatsiyadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilingani. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy maqola, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, shundan xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya Kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Musiqali dramalarda sahna nutqi muhim komponent sifatida”** deb nomlangan. Mazkur bobda musiqali teatr san'atining paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyoti hamda uning nazariy asoslari ilmiy jihatdan asoslanadi. Ushbu bobning **“Musiqali dramaga oid sahna nutqining nazariy aspektlari”** deb nomlangan birinchi qismida o'zbek musiqali dramalarida sahna nutqining o'ziga xos xususiyatlari, professional musiqali drama aktyorligining shakllanishi, ijrodagi nutqning ohangi, talaffuz me'yorlari, matndagi tub ma'noning ochilishida sahna nutqi texnikasining qay shaklda spektaklga uyg'unlashtirish masalasiga ilmiy qarashlar keltiriladi.

Musiqali dramaning tarixiy evolyutsiyasi, rivojlanish jarayoni, ijodiy strukturasi, kompozitsiyasi, badiiy komponentlari bilan o'zbek teatri tarixida alohida o'rin tutadi. Mazkur turning dramatik turdan asosiy farqi shundaki, unda avvalo, pyesa kompozitor ixtiyoriga o'tadi va musiqa bastalanadi.

Teatrshunos olim M.Qodirov musiqali dramaning xususiyatlari haqida shunday ilmiy fikr bildiradi. “Musiqali drama sahnaviy talqin tufayli, badiiy so'z bilan musiqaning teng huquqli birligidan hosil bo'ladigan, drama, tragediya va komediya yo'nalishidagi ichki janriy turlarni kashf etgan, qardosh xalqlar musiqa teatrlari va milliy adabiy-badiiy meros negizida rivojlanib kelayotgan, o'z tarixiy yo'li, uslubi, vazifalariga ega bo'lgan sahnaviy, musiqali-dramatik tur”ligini aytib o'tgan.⁸

Ilmiy ishning rivojlanish tendensiyalari rus olimlari T.Vasileva, N.Verbovaya, V.Gurov, M.Gonovskaya, L.Frolova, B.Kireyev, I.Kozlyaninova, I.Promptova, V.Galendeyev, Ye.Saricheva, B.Muravev kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Tadqiqotda A.Sayfuddinovning ta'kidlashicha, o'zbek tilidagi ifodali o'qish metodlari mavjud bo'lib, bular nutqda turli o'rinlarda turlicha qo'llanilishi haqida mulohazalar bildirilgan⁹.

1970-yillarda musiqali teatrda asosiy muammo bo'lgan so'zdan qo'shiqqa, qo'shiqdan so'zga o'tish jarayonlari tadqiq qilingan. K.Umrzoqovning nomzodlik dissertatsiyasi ayni dolzarb mavzu tahliliga bag'ishlangan keng qamrovli, qimmatli ilmiy tadqiqotdir¹⁰. O'zbek musiqali dramalarida sahna nutqining spetsifik xususiyatlari (1990-2018-yy.) nomli tadqiqot ishida musiqali dramada sahna nutqining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan, bunda so'zdan musiqaga, musiqadan

⁸ Қодиров М. Сەхр ва меҳр. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1980. – Б.6.

⁹ Сайфуддинов А. Адабий асар ва ижрочилик маҳорати. – Тошкент: Фан, 1980. – 48 б.

¹⁰ Умрзаков К.У. Проблемы сценической речи в узбекской музыкальной драме: Автореф. дис. ... канд. искус. наук. – Ташкент: Научно-исследовательский институт Искусствознания имени Хамзы Хакимзаде Ниязи, 1987. – 18 с.

soʻzga, soʻng ariyaga, ariyadan yana soʻzga oʻtishda aktyorning nutqiy mahorati, asar tili ustida ishlash uslublari, soʻz xatti-harakati uni tomoshabinlarga yetkazishdagi ifoda vositalari muhim masala boʻlib yuzaga chiqadi.

Birinchi bobning **“Oʻzbek musiqali dramasi shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiyotida sahna nutqining oʻrni”** deb nomlangan ikkinchi boʻlimda oʻzbek musiqali dramasi tur sifatida xalq ogʻzaki ijodi, maqom qoʻshiqlari, lapar, ashula va anʼanaviy teatr elementlari asosida shakllanishi, bu davrda sahna nutqi xalq tiliga yaqin boʻlishi muhim edi. Dialoglar orqali milliy ruh, urf-odat va dunyoqarash ifodalanib, ilk musiqali dramalarda qahramonlarning nutqi orqali tomoshabin voqealarni anglab, qoʻshiq va musiqiy parchalarga maʼnaviy jihatdan tayyorlanganligi taʼkidlanadi.

Oʻzbek musiqali dramasi shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida bir necha davrni bosib oʻtdi. Oʻttizinchi yilga qadar hali teatrlar janr mutanosibligi jihatidan ajralmagan boʻlib, dramatik teatr aktyorlari ham dramatik, ham musiqali asarlarda rol ijro etgan. Bu jarayon ulardan katta masʼuliyat va tajribani talab qilgan. 1924-1927-yillarda Moskva va Boku teatr-studiyalarini tamomlab qaytgan, professional taʼlim olgan, yevropa shaklidagi teatr tajribasini oʻzlashtirgan aktyorlar oʻqish jarayonida sahna nutqi qonuniyatini hamda texnikasini ham egallab qaytgan edi. Anʼanaviy teatrda aktyorning nutqi sahna nutqi fanining birlamchi koʻrinishi va asosi boʻlgan.

Toshkentdagi musiqali teatrning ilk tashkilotchilaridan biri Mirshohid Miroqilov tashabbusi bilan 1939-yil respublika komediya va satira teatri sifatida faoliyat boshlaydi. Teatr sahnasi Hamzaning “Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi” asari bilan ochilgan.

Teatrning ilk aktyorlari safida X.Umarov, M.Kuznetsova, S.Xoʻjayev, A.Bakirov, M.Yoqubova, A.Boltayev, O.Fayozova, M.Gʻofurov, M.Mirtolipovlar faoliyat yuritgan. Teatr repertuaridan oʻrin olgan Lope de Veganing “Oʻjar xonim”, B.Xalilning “Oshiqlar”, G.Gʻulomning “Qozixona” kabi sahna asarlari oʻzbek musiqali professional teatrining shakllanish davriga toʻgʻri keladi. Shu sababli bu davrda sahna nutqi hali toʻliq tizimlashmagan boʻlib, rivojlanishning oʻtish bosqichida edi.

Demak, bu davrdagi sahna nutqi adabiy til meʼyorlari asosida shakllanmaganligi uchun spektakllarda aktyorlar ovozni ataylab baland chiqarish va hissiy taʼsirni soxta intonatsiya orqali kuchaytirishga urgʻu bergan. Nutq koʻpincha badiiylikdan koʻra deklamatsiyaga asoslangan. Aktyorlar uchun maxsus “sahna nutqi” fani mavjud boʻlmaganligi sababli, sahna nutqi texnikasi ustida ishlash koʻproq amaliy tajribaga ega boʻlgan aktyorlar tomonidan amalga oshirilgan. 1940-yilga kelib teatr faoliyati takomillashib, u musiqali drama va komediya teatri sifatida qayta tashkil etildi. Bu davrda T.Jalilov badiiy rahbar, A.Azimov esa bosh rejissyor etib tayinlandi. 1941-yilda sahnalashtirilgan Sobir Abdullaning “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi xalq ijodi dostonchilik asosida yaratilgan boʻlib, anʼanaviy kuy-qoʻshiqlar ohangi tomoshabin qalbidan joy olgan boʻlsa-da, nutq masalasida shartlilik, deklamatsion holat saqlanib qoldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida teatr repertuari yanada boyib, unda o'zbek xalqining front ortidagi mehnati va jasoratini aks ettiruvchi asarlar sahnalashtirildi. Shu davrda yaratilgan K.Yashinning "Nurxon" asari o'zbek musiqali drama janrining yetuk namunalaridan biriga aylandi. Mazkur davrdagi sahna asarlarida nutq va musiqa uyg'unligiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Dialog-qo'shiq, raqs va musiqiy epizodlar bilan uzviy bog'langan holda ijro etilib, aktyor nutqining ohangdorligi, ritm va musiqaga moslilik komponentlari shakllandi. Natijada sahnadagi obrazlarning hissiy ta'sir kuchi va ifodaviyligi sezilarli darajada ortdi.

1959-1976-yillarda teatrning bosh rejissyori sifatida professor R.Hamroyev faoliyat yuritdi. Shu davrda aktyorlar jamoasi professional ijodkorlar bilan mustahkamlandi.

"O'zbek musiqali teatrida aynan shu davrda sahna nutqi yuqori bosqichga ko'tariladi. Bu asarlarda sahna nutqi avvalgi davrlarga nisbatan professional, tabiiy va badiiy jihatdan mukammal bo'lgan. Masalan "Momo yer" musiqali spektaklida nutq orqali inson taqdiri va dardi ochib berilgan."¹¹ Spektakllarning arxivdagi yozib olingan variantlaridan shunday fikrga kelish mumkinki, aktyor nutqida sun'iy pafos kamaygan, qahramonning ichki holati nutq orqali tabiiy ochib berilganligi, dialog va monologlarda ichki drammatizm, ruhiy kechinmalar aniq sezilgan. Sahna nutqi adabiy o'zbek tili talablariga yaqinlashgan. Shevaviy ifodalar badiiy maqsadda, obraz xarakteri uchungina qo'llanilgan. Talaffuz, urg'u, intonatsiya masalalariga e'tibor kuchaygan.

Musiqali dramaning tur sifatida shakllanishi va rivojlanishida O'zbekiston xalq artistlari, bastakorlar – To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, katta avlod aktyorlar – Mahmudjon G'ofurov, Lutfixonim Sarimsoqova, E'tibor Jalilova, Shahodat Rahimova, Omina Fayozova, Tursunxon Ja'farova, Soyib Xo'jayev, Hamza Umarov, Zaynab Samiyeva, Farog'at Rahmatova, keyinchalik Farziddin Fayozov, Sur'at Po'latov, Fayzulla Ahmedov, Baxtiyor Ixtiyorov, Husan Sharipovlarning ham xizmati katta. Ular ijrosidagi sahna asarlarida musiqa, so'z va sahnaviy xatti-harakatning uyg'unlashuvi ko'zga tashlandi. G'ulom Zafariyning "Halima" pyesasi, Xurshidning Navoiy dostonlari asosida yaratgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" singari sahna asarlarida musiqali dramaning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Epik qahramonlar va tarixiy shaxslar sahnaviy obrazlarini yaratishda nutq masalalari"** deb atalib, mazkur bo'limda folklor asarlarining musiqiy teatrd sahnalashtirilishi, musiqiy teatr aktyorlari tomonidan ijro etilishi murakkab ijodiy jarayon ekanligi, shu o'rinda ushbu bobda dostonlar asosida sahnalashtirilgan spektakllar hamda tarixiy shaxs obrazini yaratishda aktyor nutqi masalasi ilmiy tadqiqot sifatida o'rganildi. Shuningdek, sahna nutqi, tempo-ritm va aktyorlik ijrosi badiiy obrazni yaratishda muhim vosita ekanligi, mantiqiy pauza, intonatsiya va ovoz imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, personajning psixologik kechinmalari mazmunini chuqurroq ochadi.

Tadqiqotda aktyorning sahnadagi nutqi, nafas, ovoz va ohangning psixofiziologiyasi, nutqiy kamchiliklarini tuzatish masalalari, sheva va adabiy

¹¹ Oltinoy Tojiboyeva bilan bo'lgan suhbatdan. 2024 yil. O'zDSMI binosi.

talaffuz qoidalari, orfoepiya nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Dostonlar asosida sahnalashtirilgan musiqali spektakllar tahlili natijasida aktyorlar ijrosidagi monolog va ariyalarda nutqiy xarakter yaratish, tub ma'noni ochish, tempo-ritmni saqlash, so'zdan ohangga va ohangdan ariyaga o'tish jarayonlarida xatti-harakatning funksional ahamiyati aniqlangan. Shuningdek, aktyorlarning nutq ustida ishlash jarayoni, monolog va dialoglarda pauzalardan foydalanish mahorati, ijro tajribasi hamda ariyalarda tovushlarning musiqiyligi va ifodaviy imkoniyatlarini his etish borasidagi ijodiy izlanishlari o'rganilgan. Tadqiq etilgan spektakllar misolida sahna nutqi spetsifikasining o'ziga xos jihatlari, matnning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqur anglagan aktyor ijrosida ichki kechinma, sahna nutqidagi ta'sirchanlik namoyon bo'lishi asoslab berilgan. Musiqali teatr aktyori faoliyatida so'z va musiqa uyg'unligini ta'minlash, ijroning yaxlitligini saqlash hamda obrazning badiiy ta'sirchanligini kuchaytirishda sahna nutqining muhim o'rni ilmiy tahlillar asosida isbotlangan.

Ikkinchi bobning birinchi qismi **“Dostonlar asosida sahnalashtirilgan musiqali spektakllarda sahna nutqi spetsifikasi”** deb nomlangan bo'lib, musiqali teatlarda mustaqillik yillari repertuariga kirgan dostonlar, ularning yaratilish tarixi, asar va talqin orasidagi tafovut, dramaturg hamda rejissyor yechimi, g'oyasi, aktyor ijrosidagi o'ziga xoslik, sahna nutqi spetsifikasi tahlil qilindi.

O'zbek musiqali teatrlarida “Alpomish”, “Tohir va Zuhra” dostonlari asosida sahnalashtirilgan musiqali dramalardagi aktyorlar ovoz imkoniyatlari, sahna nutqi texnikasi, talaffuz me'yorlari monologlar misolida ochib beriladi. Shuningdek, aktyorlar ovozidagi nutqiy deklamatsiyaning mustaqillik yillariga kelib o'zgarganligi, ijroda tabiiy so'zning xatti-harakatga qo'yilganligi asoslanadi. Ushbu sahna asarlarining turli yillarda, turli teatlarda sahnalashtirilganligi qiyosiy tahlillar orqali keltirib o'tilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, “Alpomishning qaytishi”, “Tohir va Zuhra” asarlari turli teatlarda turlicha sahnaviy talqinlarda namoyon bo'lib, milliy epik an'analarni zamonaviy sahna estetikasi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari, rejissyorlik talqini va aktyorlik ijrosi jihatidan turlicha badiiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Andijon teatri spektaklida dramatik holatlarning psixologik tahlili va sahna nutqiga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa, Surxondaryo teatri talqinida milliy folklor an'analari va epik muhitni yaratishga ustuvor ahamiyat berilgan. Tahlil qilingan bir sahna asarini turli badiiy usullar orqali namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirib, o'zbek teatr san'atida epik asarlarni sahnalashtirish an'analarni boyitishga xizmat qilganligi bilan ahamiyatli ekanligi ilmiy asoslandi.

Ilmiy ishda doston asosida sahnalashtirilgan musiqali spektakllarda aktyorlar ijro etgan monolog va ariyalarda nutqiy xarakterining berilishi, tub ma'noning ochilishi, tempo-ritm masalalari, so'zdan ohangga, ohangdan ariyaga o'tish, bunda xatti-harakatning muhimligi, yutuq va kamchiliklar tahlilga tortildi. Bo'limda tahlil qilingan musiqali spektakllarda aktyorning sahna nutqi ustida ishlashi, monolog va dialoglarda so'zdan foydalanish yo'llari, aktyorlik mahorati, ariyalarda tovushlarning musiqiyligini his qilishda ijrochilarning izlanishlariga e'tibor qaratilgan.

